

UMR G'AFLAT UYQUSI BIRLA TILARSEN KECHSA, OH!

Po'latova Guli Abdumo'minovna

*O'zDJTU akademik litseyining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbek klassik she'riyatining gultojisi bo'lgan mutafakkir Alisher Navoiyning ishqiy-falsafiy g'azallaridan biri tahlil qilingan bo'lib, g'azal nasriy bayoni hamda sharhi berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *oshiqona, orifona, ko'ngil mumtoz adabiyot, ishq, qaqnus, oshiq, ma'shuqa, zohiriy ma'no, botiniy ma'no.*

O'zbek mumtoz adabiyoti alohida bir olam. Bu olamning samosi esa Alisher Navoiy ijodidir. Bu tubsiz ijodiyotni o'rganish osmondagi yulduzlarni sanashga urinish kabidir. Lekin bu ummonga bir bor bo'lsa-da sho'ng'igan g'avvos olam-olam durri samin topadi. Zero, yaxshilikka yo'g'rilgan har so'zda shifo bor.

Necha ko'nglum pora bo'lsa, rahm qilmas yor anga,  
Necha bag'rim bo'lsa qon, boqmas dame dildor anga.  
Bir yuguruk tifi erur kirpiklarim ichinda yosh,  
Kim yiqilib, sanchilibtur har tarafdin xor anga,  
Nomam eltur qush agar mazmunin aytib qilsa sharh,  
Sochqay o't qaqnus kibi ming chok o'lub minqor anga.  
La'ling ollida chekar el jonini olg'ach ko'zung,  
Bah, ne sharbatdur labingkim, jon berur bomor ango.  
Aql evi sori inonin boshlamoq, nosih ne sud,  
Telbakim, dasht uzra markabdur buzuq devor anga.  
Tortasen isyon yukin, xam qil qadnng toatg'akim,  
Yuk og'ir bo'lsa, ruku' ul dam bo'lur nochor anga.  
Umr g'aflat uyqusi birla tilarsen kechsa, oh, -  
Ko'z yumub-ochquncha kimning e'timodi bor anga?  
Men xud o'ldum, ey sabo, ko'nglumni ko'rmang ko'yida,  
Chiqma andin, deb nasihat qilg'asen zinhor anga.  
Zor jismim tushgali hajr o'tidin g'am changgiga,  
Ey Navoiy, o'xshashur ham ud anga, ham tor anga.

Navoiyning ushbu g'azali oshiqona g'azallar sirasiga kirib, ishqiy-falsafiy mavzuda yozilgan. "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") nomli devonidagi 9-g'azaldir. Asarning mohiyati ayriliq azobidan majruh bo'lgan lirik qahramon holatini aks ettirishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda insoniylik uchun ibrat bo'lgulik hayotiy saboqlar ham berib o'tilgan. Yakpora tuzilishdagi bu g'azal ramali musammani maqsur vaznida yozilgan.

G'azal ishq olovida ko'ngli pora, bag'ri qon bo'lgan oshiqning yori unga rahm etmasligi, parvo aylamasligidan yozg'irishi bilan boshlanadi:

Necha ko'nglum pora bo'lsa, rahm qilmas yor anga,  
Necha bag'rim bo'lsa qon, boqmas dame dildor anga.

Navoiy g'azallarida inson hayotining ming bir lahzasi, ming bir manzaralarini ko'rish mumkin. Mohir shoir qalami sehri ila oddiy narsalarni go'zal badiiy tasvirga aylantira olgan. Yuqoridagi g'azalning ikkinchi baytida dardchil lirik qahramon ruhiyati husni ta'lil san'ati asosida ohorli bo'yoqlarda aks ettirilgan. Ma'lumingizki, husni ta'lil fikrni misol bilan dalillash san'atidir. Ammo bu dalillash real, hayotiy bo'lmasdan faqat shoirona asoslash bo'ladi.

Mumtoz she'riyatda ko'z yoshlarini daryoga, yomg'irga, shabnamga, durga o'xshatish tasvirlarini ko'p uchratganmiz. Navoiy bu safar boshqacha yo'l tutib, ko'z yoshlarini yuguruk tifi ya'ni yosh bolaga mengzaydi. Go'yo ko'zlar ichida yosh chopqir go'dak kabi aylanardi. Bir yiqildi-yu, har tarafdin unga tikanlar sanchildi. Mujgon xor(tikan)ga o'xshatilib, ko'z yumilganda chidagi yoshlarning yuzga tushishi, ikki tarafdagi kipriklar jiplashib yoshga sanchilishi tasviri oliy darajadagi mahorat mahsulidir.

Muhabbat dardiga chalingan oshiq ma'shuqaning sitamlariga qaramay unganoma yo'llashga qaror qiladi. Navoiy bu baytda qaqnus timsoliga murojaat qiladi. Shoir boshqa "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor", "Lison ut-tayr" kabi asarlarida ham qaqnus obrazi uchraydi. "Sab'ai sayyor" dostonining 14-bobida Dilorom chalgan musiqa ta'sirida xud-bexudona turfa ovozlari chiqarayotgan Shoh Bahrom ham qaqnusga o'xshatiladi. Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarida bu afsonaviy qush haqida shunday ma'lumotlar bor: "Qaqnus - Hindistonda uchraydigan bir qush. Uzun tumshug'i bor. Unda naydagidek teshiklar ko'p. Har teshikdan alohida sado chiqadi. Ming yilcha yashaydi. Qachon o'lishi unga oldindan ayon bo'ladi. Umri poyoniga yetayotganini sezgach, bir joyga xas-xashak, cho'p-o'tin yig'adi. Keyin o'zi yiqqan shu xirmon ustiga chiqib, jonidan ayrilayotgani qasdiga shunday dard-fig'on chekadiki, buni eshitgan barcha parranda-yu darranda atrofiga yig'iladi. Bu noladan ta'sirlanib, ko'plari bu dunyodan voz kechib yuboradi, bir qanchasi shu yerdayoq jon taslim qiladi, ayrimlari behush bo'lib yiqiladi. So'ng qaqnus qanotlarini silkitishga tushadi. Shunda birdan o't chiqib ketadi. Bu olov xirmonga tutashib, katta gulxanga aylanadi. Bu otashda qaqnusning o'zi ham yonib ketadi. Xirmon cho'g', cho'g' esa kul bo'lib qoladi. Kul sovganidan keyin esa kutilmaganda uning ichidan bir jo'ja chiqib keladi. Qaqnusning jufti yo'q edi, nasli yo'q edi, tanho yashab o'tgan edi. Kuyib, kulbo'lganidan keyin o'rniga qaqnusbacha paydo bo'ldi".

Oshiq noma yuborgan elchi qush agar ahvolimga yorga bayon etmoqchi bo'lsa, qaqnus kabi son-sanoqsiz iztirob chekib, hazin ohanglar ila nola tortib, kuylab, o'zini ham, atrofidagilarni ham kulga aylantirishi deydi. Chunki oshiq shunday holatdiki, ularni oddiy so'zlar bilan tushuntirish imkonsiz. Qaqnus kabi shunday o't sochsinki, ishq o'lovi olamga o't qoysin, yorini ham yondirsin.

Haqiqatda Navoiyning o'zi ham, hayoti ham Qaqnus qushidek. U shu qush kabi umr-bo'yi bisot(badiiy merosi nazarda tutilgan) jamlab, umri davomida boshqa

kuylarga ota bo'luvchi navolar yaratdi. Yaratganning yashirin ishqini kuyladi, bu kuylaridan o'zi ham, bisoti ham, hatto boshqalar ham yondi.

Ishq oldida dengizlar – tomchi, tog'lar zarra kabidir. Oshiq ham yoridan shuncha jabr-sitam ko'rishiga qaramay, uning shuhratini, sifatlarini tashbeh qilishdan tonmaydi. Keyingi baytda zohiran qaraganda yorning "hindu bachchadek" jodugar ko'zlarini ko'rgan el o'zini yo'qotadi, jonidan ayriladi, la'ldek labining sharbatini totgan bemorga esa jon kiradi. Shu baytdan boshlab majoziy ishq ilohiy ishqqa o'z o'rnini bo'shatib beradi. Ya'ni Asl Haq ishqini yuragiga olgan kishini dunyo jilvalari alday olmaydi. Bu ishq bemor ya'ni nafs ilgida mudroqlarga haqiqiy jon, haqiqiy hayot beradi. "Xamsa" asarining bosh maqsadini tashkil etuvchi "Bo'lmasa ishq ikki jahon bo'lmasin, Ikki jahon demakim, jon bo'lmasin" jumalari ham yuqoridagi fikrga dalil bo'la oladi. Keyingi baytda ham shu fikrlar mantiqan davom etadi.

Oshiq ko'ngil kishisi, ishq odami. Oshiqlik esa jununvorlik ya'ni telbalikdir. "Telba odamning aql uyiga borishligidan ne naf? Butun dunyodan ko'ngil uz. Sening makoning- dasht-u dala, buzilgan devor".

Ishqda uch bosqich bor. Avom ishq dastlabki bosqich bo'lib, insonlar o'rtasidagi majoziy, oxiri nikoh maqomidagi ishqdir. Ikkinchisi xoslar ishq bo'lib, pok nazar bilan sevmqlikdir. Uchinchi ishq bosqichi - siddiqlar ishq. Shu bosqichlardan o'tgan insongina haqiqiy oshiqlik ya'ni fano maqomiga erishgan bo'ladi. Xirad-u dahr olamidan ko'ngil uzib, sahro, dasht-u dalaga yetib borgan inson haqiqiy oshiqdir. Xuddi Navoiy qahramonlari Farhod, Majnunlar kabi. Boshqa bir g'azalida shoir "Ishq sirin hajr asiri notavonlardan so'rung" deydi.

Oltinchi baytni shbu g'azalning "shohbayti" desak arziydi: "Olloh buyurgan yo'l-yo'riqlarga qarshi bosh ko'tarsang, albatta, jabrini tortasan. Toat uchun qaddingni xam qil, toat uchun egil. Yuk(gunoh)laring ko'paygani sari egilmoq qiyinlashadi". Zero ozod odamgina haqiqat uchun ayovsiz jangga kira oladi.

Keyingi baytlar ham shu orifona ruh izchilligida davom etadi. "Umring g'aflet uyqusida o'tib ketganda oh chekib qolasan".

Dunyoda hamma narsaning ibtidosi bo'lgani holda intihosi ham bor. Bu dunyo, umr o'tkinchi. "Dunyo moliga suyanmoq su(v)ga suyanmoq kabidir". Unga ishonma. Ko'z yumib ochguncha o'tib ketadi. Yuqoridagi baytlardan g'azalda oshiqonalik va orifonalik unsurlari mutanosib qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz.

Keyingi baytda shoir yana Haqni yagona yor deb atab, vasliga yetish uchun riyozatlar chekkan oshiq holi tasviriga qaytgan. U saboga murajaat qiladi. Sabodan yolg'izlikdan ko'ngli qay holatda ekanini, yoriga esa uning ko'nglini hech qachon tark etmasligini yetkazib, nasihat qilishini so'raydi.

Butun olam Mutloq ruhning tajallisidir. Jumladan, odam ham, uning ko'ngli, kamoloti ham shu Mutloq ruh tufaylidir. Lekin yuqorida aytilganidek, unga erishish oson ish emas. Navoiy bu ish mushkulligini g'azal maqta'sida yana bir bor aks ettiradi: "Hajr hirqatidan oshiqning zor ko'ngli g'am changiga belangan. Ud va tor singari ko'ngil ham nola chekyapti, o'rtanyapti". Haqiqiy mug'anniy torlarni qo'lga

olgandagina ko'ngil nola qilishdan to'xtaydi. Bu misrada Navoiy (na'vo, kuy so'zidan kelib chiqqan), ud, tor so'zlari tanosub san'atini yuzaga keltirgan.

She'riyat dahosi Navoiy oshiqlik kulliyotlarini tasvirlab, ilohiy dunyoni she'rlarida aks ettirib, mumtoz adabiyotimiz ohanglariga yangicha navolar ato etgan!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami.20 tomlik. Xazoyin ulmaoniy: Favoyid ul-Kibar: Toshkent: "Fan".1990.

2. Farididdin Attor. Mantiq ut-tayr. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. 2006.

3. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. 1993.

4. Navoiy g'azaliyoti talqinlari. Toshkent: "O'zbekiston". 2018